O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Rektor ________ Sh.Sirojiddinov
2023-yil 28 -avgust

# "O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI"

fanining o'quv dasturi (sillabusi)

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 230 000 – Tillar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik |

Toshkent-2023

| Fan/modul kodi | Fan/modul turi | Ta'lim tili | Ishlab chiqilgan o'quv yili |
|---|---|---|---|
| 302 O'AT2-3 13 | majburiy | o'zbek | 2023/2024 |

| Semestr | Har bir semestrdagi modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Jami: | ma'ruza | seminar | amaliy | Laboratoriya | | |
| 3 | Mumtoz adabiyotning genezisi, shakllanishi | 4 | 4 | 60 | 20 | 20 | 20 | 0 | 60 | 120 |
| 4 | XVI-XIX asr I yarmidagi adabiy va ilmiy muhit. | 5 | 4 | 60 | 20 | 20 | 20 | 0 | 90 | 150 |
| 5 | XIX asr oxiri – XX asr boshlari ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayot. | 4 | 4 | 60 | 20 | 20 | 20 | 0 | 60 | 120 |
| | Jami: | 13 | 12 | 180 | 60 | 60 | 60 | 0 | 210 | 390 |

## 1. FANNING MAZMUNI

"O'zbek adabiyoti tarixi" fani talabalarga o'zbek mumtoz adabiyoti vakillari va ularning asarlari, mumtoz poetika asoslari haqida ma'lumot beradi, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, jadidchilik harakatining adabiyotdagi ifodasi o'laroq dunyoga kelgan milliy uyg'onish adabiyotining xos xususiyatlaridan ta'lim beradi.

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

- "O'zbek adabiyoti tarixi" fani bo'yicha talaba o'zbek mumtoz adabiyotining milliy madaniyatimiz tarixi va takomilidagi o'rni, adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs hayotidagi ahamiyati, mumtoz adabiyot taraqqiyotining asosiy bosqichlari, mumtoz adabiy janrlarning shakllanishi va takomili, adabiyot tarixini o'rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari tog'risida ***tasavvurga ega bo'lishi***;

- o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi davrlarining o'ziga xos jihatlari, janrlar poetikasi, she'r sistemasining umumiy qonuniyatlari, badiiy san'atlarning hosil bo'lish yo'llari va mumtoz she'riyatda qo'llanish usullari, mumtoz she'riyatda qofiya va radifning tutgan o'rni, mumtoz nazmiy asarlar matni ustida ishlash, mumtoz asarlar uchun tuzilgan lug'atlardan foydalanish, tasavvufiy istilohlar ma'nosini tushunish, o'zbek adabiyoti tarixida qo'llangan timsollar va ramzlar mohiyatini anglash, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik omillari



xususiyatlarini bilishi va o'zbek adabiyotiga xos yangi janrlar va ularning taraqqiyot tamoyillari, she'riyatda vazn, poetik janrlar va obrazlarning yangilanish qonuniyatlari, taraqqiyot omillarini tahlil qila olishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

- yangicha adabiy-estetik tafakkurning yuzaga kelishi sharoiti va sabablarini, davr adabiyotiga oid she'riy, nasriy va ilmiy asarlarni tahlil qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

## 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- amaliy mashg'ulotlar (aqliy hujum, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;

jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

## 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

### TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarning bilimini baholash tartibi O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** O'tilgan mavzular asosida **og'zaki yoki test** shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha **og'zaki yoki test** shaklda o'tkaziladi.

***Izoh:*** *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

**2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho;**

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

### 3-SEMESTR

**1. Ma'ruza mashg'ulotlari**

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| | **Mumtoz adabiyotning genezisi, shakllanishi** | | |
| 1. | Mumtoz adabiyotning genezisi, shakllanishi va taraqqiyoti, manbalari | Mumtoz adabiyot, davr, uslub, obraz | 2 |
| 2. | O'zbek mumtoz adabiyotini davrlashtirish tamoyillari | Davr, uslub, obraz, tarixiylik | 2 |
| | **Eng qadimgi adabiyot yodgorliklari** | | |
| 3. | Eng qadimgi og'zaki adabiyot yodgorliklari. | Og'zaki adabiyot, yozma adabiyot, uslub, obraz, tarixiylik | 2 |
| 4. | Islomgacha bo'lgan davrdagi qadimgi turkiy adabiyot | Turkiy adabiyot, obraz, mif, afsona | 2 |
| 5. | G'aznaviylar va qoraxoniylar davrlari adabiyoti | Didaktika, davr, adabiy muhit, uslub | 2 |
| | **Adabiy jarayonlar** | | |
| 6. | Oltin O'rda o'zbek adabiyoti. O'rda adabiy muhitida adabiy jarayon va ilmiy muhitning rivoji. Janrlar taraqqiyoti | Tarixiylik, tarjima, obraz, uslub | 2 |
| 7. | Sayfi Saroyi ijodi. "Gulistoni bit-turkiy" asari. Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni. | Tarjima, bob, obraz, uslub | 2 |
| 8. | Temuriylar davri o'zbek adabiyoti | An'ana, o'ziga xoslik, uslub, obraz, nazm, nasr | 2 |
| | **Temuriylar davri o'zbek adabiyoti** | | |
| 9. | Atoyi va Sakkokiy ijodi | Obraz, an'ana, uslub, timsol | 2 |
| 10. | Lutfiy va Gadoyi ijodiy merosi | Devon, tazkira, qo'lyozma, nusxa | 2 |
| | | **Jami:** | **20 s.** |



### 4-SEMESTR

**1. Ma'ruza mashg'ulotlari**

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| | **XVI-XIX asr I yarmidagi adabiy va ilmiy muhit.** | | |
| 1. | XVI-XIX asr I yarmidagi adabiy va ilmiy muhit. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va adabiy merosi. | Manba, matn, qo'lyozma, nusxa, obraz, uslub. Nazm, nasr, ilmiy asar, tarixiylik | 2 |
| 2. | Boburning she'riy mahorati | Lirika, ruboiy, tuyuq, g'azal | 2 |
| | **Xoja va So'fi Olloyor ijodiy merosi** | | |
| 3. | Xoja ijodiy merosi. So'fi Olloyor va "Sabot ul-ojizin" asarining badiiy xususiyatlari | Nasr, hikoya, uslub, nazm | 2 |
| | **Adabiy muhitning ta'siri** | | |
| 4. | Boborahim Mashrabning hayoti, shoir ijodini o'rganishda "Qissayi Mashrab" asarining o'rni. Adabiy merosi. | Qalandariylik, obraz, tashxis, qo'lyozma, nusxa. | 2 |
| 5. | Buxoro adabiy muhiti. Qul Ubaydiyning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni. | Nazm, nasr, ruboiy, risola | 2 |
| 6. | Xo'janazar Huvaydo hayoti va ijodiy merosi | G'azal, ruboiy, obraz, timsol | 2 |
| | **Qo'qon adabiy muhiti** | | |
| 7. | Qo'qon adabiy muhiti. Amiriyning hayoti va ijodi. Gulxaniy ijodiy merosi. Zarbulmasal" – majoziy xarakterdagi asar. | G'azal, an'ana, obraz, uslub. Majoz, obraz, timsol, hikoya, masal | 2 |
| 8. | Uvaysiy hayoti va adabiy merosi. Nodira hayoti va ijodiy merosi | Lirika, obraz, uslub, an'ana | 2 |
| | **Xiva adabiy muhiti.** | | |
| 9. | Xiva adabiy muhiti. Abulg'ozi Bahodirxonning "Shajarayi turk" asari adabiy manba sifatida. Muhammadniyoz Nishotiy "Husn va Dil" asarining adabiy maqomi. | Tarixiylik, tarjima, tazkira, obraz. Doston, obraz, ramziylik, majoz | 2 |
| 10. | Shermuhammad Munis she'riyatida janrlar takomili. Ogahiy hayoti, ijodi manbalari va adabiy merosi. | G'azal, an'ana, obraz, uslub. | 2 |
| | | **Jami:** | **20 s.** |

## 5-SEMESTR

### 1. Ma'ruza mashg'ulotlari

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| | **XIX asr oxiri – XX asr boshlari ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayot.** | | |
| 1 | Kirish: XIX asr oxiri – XX asr boshlari ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayot. | Adabiy muhit, ijtimoiy voqelik, matbuot, tur va janrlar, adabiy-estetik bahslar, davr, bayozlar. | 2 |
| 2 | Xorazm adabiy muhiti. Muhammad Rahimxon Feruz, Komil Xorazmiy, Ahmad Tabibi hayoti va ijodiy merosi. | Xorazm adabiy muhiti, Feruz, Komil, Tabibiy adabiy merosi, tarjimachilik, janrlar, devon. | 2 |
| 3 | Qo'qon adabiy muhiti. Muqimiy ijodi, o'rganilishi. | Turkum poetik she'rlar, Qo'qon adabiy muhiti,« Sayyohatnoma » asar, yangicha talqin, bayozlar, janrlar. | 2 |
| 4 | Furqat. Furqatshunoslik tadriji. | Furqatshunoslik, matbuot, asarlar tahlili, xorij safari, asarlar to'plami, yangicha talqin. | 2 |
| 5 | Ishoqxon Ibrat hayoti va ijodi. Karimbek Kamiy faoliyatining ilmiy tavsifi | XX asr boshlari, Kamiy va Toshkent adabiy muhiti, Ibrat pedagog, matbuot, davr voqeligi. | 2 |
| 6 | Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri. XX asr boshlari Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot. Ismoilbek Gasprinskiy | Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot, kutubxona, matbuot, nashriyot, Gasprinskiy va Turkiston, asarlar tahlili. | 2 |
| 7 | Mahmudxo'ja Behbudiy ijodiy faoliyati | « Padarkush », matbuot, XX asr, darsliklar, drama, obraz. | 2 |
| 8 | Abdulla Avloniy asarlarining tadqiqi.Tavallo ijodiy merosining tavsifi | Dramaturgiya, davr, pedagog, matbuot, darslik, Tavallo she'riyati, maktab. | 2 |
| 9 | Abdurauf Fitrat ilmiy faoliyati. Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodining janr ko'lami. | Fitrat va adabiyotshunoslik, tanlangan asarlar, Hamza pedagog, drama, matbuot. | 2 |
| 10 | Abdulla Qodiriy nasri Cho'lpon ijodiy faoliyati. | Roman, XX asr, obraz, ijtimoiy voqelik, yangi she'riyat, janr. | 2 |
| | | **Jami:** | **20 s.** |



### 2. Amaliy mashg'ulotlar
### 3-semestr

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| | **Mumtoz adabiyotning genezisi, shakllanishi** | | |
| 1 | Mumtoz adabiyotda an'anaviy mavzu va obrazlar. | Mavzu, obraz, uslub, an'ana | 2 |
| 2 | Devon, bayoz va tazkiralar – mumtoz adabiyot manbalari sifatida. | Devon, bayoz, tazkira, bob | 2 |
| 3 | "O'g'uznoma" kitobiy eposidagi afsona va rivoyatlar tahlili. Qadimgi miflar va afsonalar. Manbalari va mavzu xususiyatlari. | Afsona, mif, rivoyat, mavzu, obraz | 2 |
| | **Eng qadimgi adabiyot yodgorliklari** | | |
| 4 | "Devonu lug'otit-turk"dagi adabiy parchalar mavzu va janr xususiyatlari. | Adabiy parcha, obraz, maqol, matal, afsona | 2 |
| 5 | O'zbek adabiyotida noma janri. "Dahnoma", "Taashshuqnoma"dagi ma'no va timsollar uyg'unligi | Noma, obraz, an'ana, o'ziga xsolik | 2 |
| | **Afsona rivoyatlar talqini** | | |
| 6 | Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida rivoyat va afsona janriga oid ma'lumotlar. | Rivoyat, afsona, obraz, tarixiylik | 2 |
| 7. | Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni. | Doston, nazm, obraz, an'ana | 2 |
| | **Temuriylar davri o'zbek adabiyoti** | | |
| 8. | Atoyi g'azallarining obrazlar ko'lami | Nusxa, g'azal, devon, obraz | 2 |
| 9. | Sakkokiy va Lutfiy lirikasining o'ziga xosligi | Nusxa, g'azal, devon, obraz | 2 |
| 10. | Husayniy lirikasidagi obrazlarning badiiy san'atlar bilan uyg'unligi | Tashbih, talmih, an'ana, nusxa, g'azal, devon, obraz | 2 |
| | | **Jami:** | **20 s.** |

### 2. Amaliy mashg'ulotlar
### 4-semestr

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| | **1-bob (modul). XVI-XIX asrlar adabiyoti** | | |
| 1 | "Boburnoma"da muallifning xarakter yaratish mahorati. | Asarning mazmuni, falsafiy-badiiy mohiyati, ijodkor mahorati ochiladi. | 2 |
| 2 | Shayboniyxon hayoti va ijodi. Muhammad Solih ijodi. | Shoir devoni va uning janr xususiyatlari. Asarlarining mavzu va g'oyaviy ko'lami. Shoir dunyoqarashi va tariqati. | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | Shayboniyxon ijodida lirik qahramon tabiati. She'riy mahorat qirralari. «Shayboniynoma» jangnoma tipidagi doston sifatida. Asar mazmuni, tarixiy shaxslar va badiiy timsollar. | |
| 3 | Turdi Farog'iy adabiy merosi va uning o'rganilish tarixi. | Turdining adabiy merosi ko'lami. Asarlarining dunyoviy va majoziy ma'nolari talqin etiladi. | 2 |
| 4 | Abulg'ozi Bahodirxon - etuk tarixnavis. | 'Shajarayi turk' asarining tarixiy-adabiy manba ekanligi yoritiladi. | 2 |
| 5 | Nishotiyning "Husn va Dil" dostoni syujeti va kompozitsiyasi, timsollar olami. | Asarning tuzilish tarkibi, timsollar olamining ramziylik xususiyatlari yoritiladi. | 2 |
| 6 | Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida badiiy mahorat va majoz masalalari. | 'Zarbulmasal'da badiiy mahorat. Masal, hikoyat va maqollarning asardagi o'rni aniqlanadi. | 2 |
| | | **3-bob (modul). Janrlar takomili** | |
| 7 | Uvaysiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi, shoira mahorati. | Shoira ijodini o'rganishga yangicha yondashuvlar. Irfoniy va ramziy xususiyatlar talqini. | 2 |
| 8 | Munis she'riyatida janrlar takomili va shoir mahorati. | Munis asarlarida badiiy mahorat. Janriy rang-baranglik va ijodkor uslubi oydinlashtiriladi. | 2 |
| 9 | Ogahiyning she'riy mahorati. | Asarda hayot falsafasi, ijtimoiy-ma'naviy masalalar tasviri. | 2 |
| 10 | Ogahiyning tarixiy va tarjima asarlari | Ogahiyning tarixnavislik va tarjima maktabi yoritiladi. Ijodkor mahorati talqin etiladi. | 2 |
| | | **Jami** | **20 s.** |

**2. Amaliy mashg'ulotlar**

**V semestr**

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Maqsad va vazifalari. | Davr adabiy muhiti, manbalari, ijtimoiy voqelik, tur va janrlar | 2 |
| 2 | Komil Xorazmiy hayoti va ijodiga oid ilmiy asarlarni o'rganish, shoir asarlari tahlili, Muhammad Rahimxon Feruzning "Elga shohu ishqqa qul" asarini o'rganish, Ahmad Tabibiby adabiy merosi. Shoir ijod namunalari tahlili. | Komil va Feruz asarining o'rganish, Tabibiby adabiy asarlari janri, shoirlar ijodi tahlili. | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | Furqat adabiy merosi. Shoir asarlari tahlili, Muqimiy ijodida davr ijtimoiy voqeligining badiiy talqini, Ishoqxon Ibrat asarlari tahlili. | Furqat va Muqimiy adabiy merosi. Ishoqxon Ibrat asarlari tahlili. Ijtimoiy voqelik talqini. | 2 |
| 4 | Karimbek Kamiy she'riyati va ijodiga oid ilmiy asarlar tahlili, Fazlulloh Almaiy hayoti va ijodi. | Kamiy va Almaiy she'riyati, ijodining o'rganilishi, janrlar takomili. | 2 |
| 5 | XX asr boshlari Turkiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotiga oid ilmiy asarlar ustida ishlash. | Ijtimoiy hayot, adabiy muhit, asarlar, adabiyotlar. | 2 |
| 6 | Ismoilbek Gasprinskiyning Turkistonga oid asarlari. Mahmudxo'ja Behbudiyning muharrirlik faoliyati. "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnali | Gasprinskiy va Turkiston. Behbudiy adabiy merosi, asarlari haqida adabiyotlar tahlili. | 2 |
| 7 | Abdulla Avloniyning Turkiston matbuot va teatri Taraqqiyotidagi o'rni. Sidqiy-Xondayliqiy va So'fizoda she'rlari tahlili. | Avloniy va teatr, matbuot, Sidqiy asarlari, davr voqeligi. | 2 |
| 8 | Abdurauf Fitrat – yangicha adabiy tafakkur asoschisi. Fitratning nasriy va dramatik asarlari tahlili. Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodini mustaqillik davrida o'rganish muammolari haqida munozara. | Fitrat va adabiyot, Hamza asarlari tahlili, ijodining o'rganilishi, dramalar | 2 |
| 9 | Abdulla Qodiriy ijodi. Hajviy asarlari. "Baxtsiz kuyov" pesasi."O'tkan kunlar"ning yaratilishi. "Mehrobdan chayon" romani. | Qodiriy asarlari, ramonlari tahlili, obrazlar, XX asr. | 2 |
| 10 | Abdulhamid Cho'lpon adabiy merosi. Cho'lponshunoslik. Cho'lpon she'rlari tahlili. | Cho'lponshunoslik.Shoir she'rlari tahlili, ijtimoiy voqelik. | 2 |
| | | **Jami:** | **20 s.** |

**3. Seminar mashg'ulotlari**
**3-semestr**

| № | Seminar mashg'ulotlar mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| | **Mumtoz adabiyotning genezisi, shakllanishi** | | |
| 1 | Mumtoz adabiyotni davrlashtirish tamoyillari. | Davr, uslub, an'ana, obraz | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2 | Mumtoz adabiyot taraqqiyotida Qur'oni karim g'oyalari va hadisi sharifdagi fikrlarning o'rni va ahamiyati. | Hadis, rivoyat, obraz, timsol, g'oya | 2 |
| | **Didaktik va tarixiy asarlarning o'ziga xosligi** | | |
| 3 | Didaktik asarlar tahlili ("Kalila va Dimna", "Chor Darvesh", "Guliston" (Sa'diy), "To'tinoma" tipidagi asarlar misolida). | Didaktika, nasihat, falsafa, nasr, nazm | 2 |
| 4 | Tarixiy va asarlarning siyosiy-axloqiy mavzudagi asarlarning adabiy qimmati, ma'rifiy ahamiyati. ("Qobusnoma" (Kaykovus), "Siyosatnoma" (Nizomulmulk...) | Nasr, nazm, axloqiy-siyosiy, obraz, timsol | 2 |
| 5 | Xoja Ahmad Yassaviy ijodiy merosi. "Devoni hikmat" va "Faqrnoma" asarlari | Hikmat, tasavvuf, yassaviylik, obraz | 2 |
| | **Asarlar o'ziga xos obrazlar tizimi** | | |
| 6 | "Qutadg'u bilig" dostonining kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi. | Didaktika, obraz, tisol, tarixiylik | 2 |
| 7 | Sayfi Saroyi ijodi. "Gulistoni bit-turkiy" asari | Tarjima, obraz, bob, uslub | 2 |
| 8 | "Qisasi Rabg'uziy"da kichik janrlar badiiyati | Janr, g'azal, masnaviy, musallas | 2 |
| | **Dostonlar poetikasi** | | |
| 9 | "Yusuf qissalari" va "Yusuf va Zulayxo" turkumidagi dostonlarning shakllanishi. | Doston, an'ana, syujet, uslub | 2 |
| 10 | Haydar Xorazmiy " Gul va Navro'z" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari | Doston, obraz, ramziylik, timsol | 2 |
| | | **Jami:** | **20 s** |

**Seminar mashg'uloti**

**IV SEMESTR**

| № | Seminar mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| | **1-bob (modul). XVI-XIX asrlar adabiyoti** | | |
| 1 | "Boburnoma"da muallifning adabiy-estetik qarashlari. | Asarda muallifning adabiyotshunos olim sifatidagi qarashlari, Hirot adabiy muhiti yoritiladi. | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| 2 | "Shajarayi turk" asaridagi tarixiy siymolar tasvirida badiiy mahorat. | Asardagi tarixiy shaxslar siymosining badiiy obraz darajasida talqin etilgani. Ijodkor mahorati o'rganiladi. | 2 |
| 3 | "Mabdai nur" asarining g'oyaviy va badiiy xususiyatlari. | Asar Rumiy asari bilan qiyosan o'rganiladi.Hikoyatlarning falsafiy-badiiy mohiyati ochiladi. | 2 |
| 4 | So'fi Olloyorning ilmiy-adabiy merosi talqini | Asarlari axloqiy-ta'limiy nuqtai nazardan o'rganiladi. Majoz va haqiqat ifodasi talqin etiladi. | 2 |
| 5 | Amiriy ijodida janrlar takomili. | Shoir she'riyatida janrlar ko'lami. Ijodkor mahoratining namoyon bo'lish xususiyatlari. | 2 |
| 6 | "Zarbulmasal" asarida **hikoyalarning o'rni. Sujet va kompozitsiya.** | Asarning sujet va kompozitsiyasida **hikoyatlarning o'rni va vazifalari aniqlanadi.** | 2 |
| 7 | Nodira she'riyatida an'ana va badiiy mahorat. | Shoira she'riyatida an'ana va yangilanish. Unda majoz va haqiqatning yoritilishi. | 2 |
| 8 | Nurmuhammad Andalibning hayoti va adabiy merosi. "Yusuf va Zulayho" dostonining qiyosiy talqini. | Andalib dostonlarida hayot falsafasi,ijtimoiy-a'naviy masalalar tasviri.Yusuf va Zulayxo sujetining genezisi. | 2 |
| 9 | Ogahiyning tarixnavislik mahorati ("Shohidi iqbol" asari misolida) | 'Shohidi iqbol' asarida hayotiy haqiqat va badiiy ifoda talqini. | 2 |
| 10 | Munis Xorazmiyning "Firdavs ul-iqbol" asari adabiy-tarixiy manba. | 'Firdavs ul-iqbol'ning adabiy-tarixiy manba ekanligi. Ijodkor mahoratining namoyon bo'lish xususiyatlari. | 2 |
| | | **JAMI** | **20 s.** |

**2. Seminar mashg'ulotlari**

5-semestr

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | XIX asr oxiri – XX asr boshlari ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayotiga oid tadqiqotlar bilan tanishish. | Madani-adabiy hayot, XX asr boshlari adabiyoti, tur va janrlar. | 2 |
| 2 | Komil Xorazmiy – yangicha ma'rifatpar varlikning ilk namoyandasi. G'azallar tahlili. Muhammad Rahimxon Feruz – shoir va ma'rifatparvar. Shoir ijodining o'rganilishi. | Komil va Feruz g'azallari, adabiy maktab, asarlarining o'rganilishi. | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | Muqimiy adabiy merosi. Sayohatnomalarida ijtimoiy turmush manzarasining aks etishi. Furqatning ma'rifiy g'azallari tahlili. Is'hoqxon Ibratning adabiy, ilmiy merosi. | «Sayohatnoma » asari, Furqat g'azallari tahlili, Ibrat ijodi. | 2 |
| 4 | Karimbek Kamiy va Fazlulloh Almaiy adabiy merosi. | Kamiy bayozi, Almaiy she'rlari, davr voqeligi, asarlari nashri. | 2 |
| 5 | Ismoilbek Gasprinskiyning adabiy-estetik qarashlari tahlili. "Padarkush" dramasi va jadid dramachiligi. | Gasprinskiy va Behbudiy ijodining o'rganilishi, « Tajimon», « Oyna » nashrlari. | 2 |
| 6 | Abdulla Avloniy she'riyati. Tavallo she'riyatida millat va milliyat masalalarining yoritilishi. | Teatr, dramalar, Tavallo merosi, XX asr, matbuot. | 2 |
| 7 | Fitratning ilmiy merosi. Hamza Hakimzoda she'riyati. Hamzashunoslik tadriji. | Fitrat merosi, Hamza dramalari, Fitrat va adabiyot shunoslik | 2 |
| 8 | Hamza Hakimzoda Niyoziy dramalari tahlili. Abdulla Qodiriy ijodining o'rganilish bosqichlari. | Hamza va matbuot, Qodiriy ramonlari, nasriy asarlar. | 2 |
| 9 | Abdulla Qodiriy hikoyalari va jadidchilik. | Jadidchilik, hikoyalar, XXasr, obrazlar. | 2 |
| 10 | Cho'lponning nasriy va publitsistik asarlari. | Nasriy va publitsistik asarlar, matbuot, asarlar. | 2 |
| | | **Jami:** | **20 s.** |

**4. Mustaqil ta'lim ishlari**
**3-semestr**

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | O'quv mashg'ulot turi nomi | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|---|
| | **Tahlil bosqichlari** | | | |
| 1. | Amaliy va seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish | Mustaqil ta'lim | Mustaqil ishlash, tayyorgarlik, referat. | 10 |
| 2. | Kaykovusning "Qobusnoma" asaridagi hikoyat va tamsillar. | Mustaqil ta'lim | Hikoyat, rivoyat, afsona | 4 |
| 3. | Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asaridagi hikoyatlar tahlili. | Mustaqil ta'lim | Hikoyat, siyosat, didaktika | 4 |
| 4. | Umar Xayyom "Navro'znoma" asari tahlili. | Mustaqil ta'lim | Noma, badiiyat, obraz | 2 |



| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 5. | Firdavsiy "Shohnoma"si qahramonlari. Ularning keyingi davr epik poeziyasiga ko'chishi. | Mustaqil ta'lim | Tarixiylik, obraz, poeziya | 2 |
| 6. | "Chahor maqola" (Nizomiy Aruzi Samarqandiy) asari tahlili. | Mustaqil ta'lim | Tazkira, nasr, nazm | 4 |
| | **Didaktik asarlar tahlili** | | | |
| 7. | Sa'diy Sheroziy "Guliston" asarining Sharq adabiyotida tutgan o'rni. | Mustaqil ta'lim | Didaktika, obraz, hikoyat, nasr, nazm | 4 |
| 8. | Safarnoma va sayohatnoma turkumidagi asarlar (Nosir Xusrav, Ibn Batuta va boshqalarning asarlari misolida). | Mustaqil ta'lim | Safarnoma, sayohatnoma | 2 |
| 9. | Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning "Jome ut-tavorix" asaridagi rivoyatlar tahlili | Mustaqil ta'lim | Rivoyat, asona, tarixiylik | 2 |
| 10. | O'zbek mumtoz adabiyotining Rossiyada va Yevropada o'rganilish tarixi. | Mustaqil ta'lim | Mumtoz adabiyot, tazkira, an'ana | 2 |
| 11. | "Devonu lug'otit-turk"dagi adabiy janrlarni o'rganish. | Mustaqil ta'lim | uslub, obraz, tarixiylik, maqol | 2 |
| | **Obrazlar tizimi** | | | |
| 12. | Pahlavon Mahmud ruboiylari tahlili. | Mustaqil ta'lim | Ruboiy, obraz, badiiyat | 2 |
| 13. | "Al jomi' as-sahih"dagi hadislardan namunalar to'plash. | Mustaqil ta'lim | Hadis, an'ana, sahih | 2 |
| 14. | Ranglar va raqamlarning ramziy ma'nolari. | Mustaqil ta'lim | An'ana, ramziylik, obraz, timsol | 2 |
| 15. | O'zbekistonda avestoshunoslikka oid ilmiy asarlar ro'yxatini tuzish va ayrim asarlarga annotatsiya yozish. | Mustaqil ta'lim | Tadqiqot, dissertatsiya, bibliografiya | 4 |
| | **Qadimgi turkiy yodgorliklar** | | | |
| 16. | Qadimgi turkiy yodgorliklar bo'yicha O'zbekistonda yaratilgan ilmiy asarlarning bibliografiyasini tuzish, monografiyalarga annotatsiya yozish. | Mustaqil ta'lim | Tadqiqot, dissertatsiya, bibliografiya | 4 |
| 17. | Ibn Sinoning adabiy faoliyatiga oid asarlar annotatsiyasini tuzish. | Mustaqil ta'lim | Annotatsiya, bibliografiya | 4 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 18. | Beruniyning adabiyotga oid faoliyatini o'rganish, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asaridan mumtoz adabiyotda mavjud timsollar genezisini aniqlash, asardagi rivoyatlarni tahlil qilish. | Mustaqil ta'lim | Tarixnavislik, tarjimachilik, an'ana | 4 |
| | | | **Jami:** | **60 s** |

### 4-SEMESTR

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | O'quv mashg'ulot turi nomi | Qisqacha tavsifi(kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|---|
| | **Timsollarning o'ziga xosligi** | | | |
| 1. | "Muzakkiri ahbob"dagi XVI asr o'zbek adabiyoti va madaniyatiga oid ma'lumotlar annotatsiyasini tuzish. | Mustaqil ta'lim | Tazkira, an'ana, bob | 6 |
| 2. | Huvaydoning "Ibrohim Adham" qissasi va undagi timsollarni tavsiflash. | Mustaqil ta'lim | Qissa, manzuma, doston | 6 |
| 3. | "Qissayi Mashrab"da Mashrab shaxsini orituvchi rivoyatlarning annotatsiyasini tuzish. | Mustaqil ta'lim | Qalandariylik, g'azal, timsol, obraz | 6 |
| 4. | "Zarbulmasal"dagi maqollarning asardagi o'rnini aniqlash. | Mustaqil ta'lim | uslub, obraz, tarixiylik | 6 |
| | **Tahlil bosqichlari** | | | |
| 5 | Uvaysiy she'riyatidagi timsollar ko'lamini va mohiyatini aniqlash. | Mustaqil ta'lim | G'azal, an'ana, obraz, uslub. | 6 |
| 6. | Andalib va Nishotiy dostonlari misolida davr dostonchiligi borasida mulohaza yuritish. O'xshash va farqli tomonlarini topish. | Mustaqil ta'lim | Doston, didaktika, obraz, hikoyat, nasr, nazm | 6 |
| 7. | "Sabotul - ojizin" asari tarkibidagi hikoyalarni sharhlash. | Mustaqil ta'lim | Tasavvuf, obraz, an'ana | 6 |



| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 8. | Mutribiyning "Tazkirat ush-shuaro" asaridagi XVI asr o'zbek adabiyoti va madaniyatiga oid ma'lumotlar annotatsiyasini tuzish. | Mustaqil ta'lim | Tazkira, an'ana, bob | 6 |
| | **Sharhlar tamoyillari** | | | |
| 9. | Nishotiy dostonlari misolida davr dostonchiligi borasida mulohaza yuritish. O'xshash va farqli tomonlarini topish. | Mustaqil ta'lim | Davr, dostonchilik, an'ana | 6 |
| 10. | "Firdavs ul-iqbol" asaridagi badiiy parchalarni sharhlash. | Mustaqil ta'lim | Badiiyat, tarixiylik | 6 |
| 11. | XVI asr tazkiranavisligi tarixi. | Mustaqil ta'lim | Tazkiranavislik, an'ana, uslub, an'ana | 6 |
| | **Tarjima va tazkirachilik** | | | |
| 12. | "Tazkirayi Qayumiy"dagi Qo'qon adabiy muhiti shoirlari tasnifi. | Mustaqil ta'lim | Muhit, tazkira, an'ana | 6 |
| 13. | Xiva adabiy muhitida tarjima san'atining taraqqiyot tamoyillari. | Mustaqil ta'lim | Tarixnavislik, tarjimachilik, an'ana | 2 |
| | **Adabiy muhit ta'siri** | | | |
| 14. | "Shohidi iqbol" asarida Ogahiyning xarakter yaratish mahorati. | Mustaqil ta'lim | Xarakter, tarixiylik | 6 |
| 15. | Qo'qon adabiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari | Mustaqil ta'lim | Muhit, tazkira, an'ana | 2 |
| | **An'anaviylik va o'ziga xoslik** | | | |
| 16. | Dilshodi Barno she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari | Mustaqil ta'lim | G'azal, an'ana, obraz, badiiy san'atlar | 4 |
| 17. | Anbar Otin ijodida an'anaviylik | Mustaqil ta'lim | G'azal, an'ana, obraz, uslub. | 4 |

**Jami : 90 s**

**4. Mustaqil ta'lim ishlari**

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | O'quv mashg'ulot turi nomi | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Amaliy va seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish. | Mustaqil ta'lim | Mustaqil ishlash, tayyorgarlik, referat. | 4 |
| 2. | Dilshodi Barno hayoti va ijodi. | Mustaqil ta'lim | Adabiy muhit, asarlari bo'yicha taqdimot, asarlar. | 4 |
| 3. | Muhammad Yusuf Bayoniy ijodi. | Mustaqil ta'lim | XX asr, Tanlangan asarlar, Referat. | 4 |
| 4. | Zavqiy biografiyasi.G'azallari tahlili. | Mustaqil ta'lim | Qo'qon adabiy muhiti, Asarlar to'plami, Tarjimai hol. | 4 |
| 5. | Muhayyir she'riyati tahlili. | Mustaqil ta'lim | Devon, asarlar, XX asr, Qo'qon. | 4 |
| 6. | Anbar Otin hayoti va ijodi. "Qarolar falsafasi" dostoni tahlili. | Mustaqil ta'lim | Anvar Otin merosi, o'rganilishi, adabiy muhiti. | 4 |
| 7. | Yusuf Saryomiy va tasavvuf adabiyoti. | Mustaqil ta'lim | Tasavvuf, Asarlar to'plami, XX asr. | 4 |
| 8. | Avaz O'tar o'g'li. She'rlari tahlili. | Mustaqil ta'lim | Avaz she'riyati tahlili, o'rganilishi, adabiy muhit. | 4 |
| 9. | Haziniy. Devoni. G'azallari tahlili. | Mustaqil ta'lim | Devon janrlari, g'azallar tahlili, XX asr. | 4 |
| 10. | Siddiqiy-Ajziy ijodida ma'rifat va Vatan mavzusi talqini. | Mustaqil ta'lim | Ma'rifatparvarlik, asarlar, matbuot, XX asr. | 4 |
| 11. | Munavvarqori Abdirashidxonov – o'zbek jadidchilik harakatining yo'lboshchilaridan biri. | Mustaqil ta'lim | Tanlangan asarlar, matbuot, darsliklar. | 2 |
| 12. | Vasliy Samarqandiy hayoti va ljodiy merosi. | Mustaqil ta'lim | Samarqand adabiy muhiti, matbuot, davr. darslik. | 4 |
| 13. | Milliy uyg'onish davri o'zbek Adabiyotining o'rganilishi. | Mustaqil ta'lim | B.Qosimov kitoblari, XX asr boshlari adabiyoti. | 2 |
| 14. | O'zbek milliy uyg'onish | Mustaqil ta'lim | Xorij adabiyotlar tahlili, Baldaf asarlari, Germaniyada o'rganilishi. | 2 |



| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Adabiyotining xorijda tadqiq qilinishi. | | | |
| 15 | Munavvarqori Abdirashidxonov – o'zbek jadidchilik harakatining yo'lboshchilaridan biri. | Mustaqil ta'lim | S.Ahmed maqolalari, matbuot, darslik. | 2 |
| 16 | Fitratning ilmiy merosi. | Mustaqil ta'lim | Fitrat va adabiyotshunoslik muammolari, XX asr, fitratshunoslik. | 2 |
| 17 | Hamza ijodini o'rganish muammolari. | Mustaqil ta'lim | Dramaturgiya, matbuot, darslik, asarlar to'plami. | 2 |
| 18. | Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" Romani atrofidagi munozaralar | Mustaqil ta'lim | "O'tkan kunlar" nashrlari, munozaralar, obrazlar. | 2 |
| 19. | Cho'lpon ijodi atrofidagi bahs-munozaralar. | Mustaqil ta'lim | Cho'lpon ijodi, asarlar to'plami, XX asr. | 2 |
| | | | **Jami:** | **60 s.** |

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliyot mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash;
- uy vazifalarini bajarish va h.k.

**6. FANNING KURS ISHI MAZMUNI**

O'quv rejada kurs ishi berilmagan.

**7. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI**

**Asosiy adabiyotlar**

1. Sirojiddinov Sh. O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. – T.: Yangi asr avlodi, 2011.

2. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. – T.: O'zbekiston, 2014.

3. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2-jildlar) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005, 2007.

4. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Sano – standart, 2018.
5. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. - T., 2006.
6. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va b. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. - T.: Ma'naviyat, 2004.
7. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T., Yangi asr avlodi. 2005.
8. Normatov U. Yangi o'zbek adabiyoti. O'quv qo'llanma. – T. : Universitet. 2007.
9. Karimov N va b. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1999.
10. Hamroyeva O. Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari. Monografiya -T.: Bookprint, 2023.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalq so'zi, 2017 yil, 8 fevral).
3. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida (Xalq so'zi, 2017 yil, 21 aprel).
6. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
7. Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). Darslik. T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
8. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - T., 2005.
9. Dolimov U. Milliy uyg'onish pedagogikasi. T.: Noshir, 2012.
10. Qosimov B. Milliy uyg'onish: ma'rifat, jasorat, fidoyilik. -T.: Ma'naviyat, 2002.
11. O'zbek adabiyoti tarixi, 5 jildlik, 1-4 jildlar. – T.: Fan: 1977.
12. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1990.
13. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. –T.: Universitet, 2006.
14. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma'naviyat. T.: Ma'naviyat, 2015
15. Jabborov N. Ma'rifat nadir. –T.: Ma'naviyat, 2010
16. O'zbek milliy uyg'onish adabiyotiga materiallar. 1-son (hammuallif). Toshkent: Universitet, 2004.
17. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. –T.:Akademiya, 2000.
18. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T., Ma'naviyat. 2000.
19. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. –T.: Sharq, 2008
20. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. –T., 2010.
21. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T.: Yangi asr avlodi. 2006
22. Mirvaliev S. O'zbek adiblari. – Yozuvchi, 2000
23. Normatov U. Nafosat gurunglari. – T.: Muharrir, 2010



24. Adabiyot ensiklopediyasi / Tuzuvchi: H.Boltaboev. – T.: Mumtoz so'z, 2015.
25. Hamroeva O. Adabiyot. Mukammal o'quv qo'llanma. –T.: Akademnashr, 2021.
26. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. Adabiy-ilmiy maqolalar to'plami. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2016.

**Axborot manbalari**

1. http://www.kutubxona.uz
2. http://www.literature.uz
3. http://www.ziyonet.uz
4. http://www.alishernavoiy.uz

## 8. ISHCHI O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

| | |
|---|---|
| Ishchi o'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 202___ yil "___" "______" dagi "___" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. | |
| **"O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasi mudiri, f.f.d., professor** | |
| N.Jabborov | ________ *(imzo)* |
| **Tuzuvchilar:** | |
| O.Hamroyeva | ________ *(imzo)* |
| **"O'zbek adabiyoti tarixi"** kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc). | |
| **Taqrizchilar:** | |
| H.Boltaboyev | O'zMU professori |
| K.Mullaxo'jayeva | ToshDO'TAU dotsenti |